

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**  
**O‘zbekiston davlat jismoniy  
tarbiya va sport universiteti  
rektori R. Matkarimov**



“ 29 ” 2024-yil

**O‘RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA‘LIM MUASSASA  
(TEXNIKUM)LARNI MUVAFFAQIYATLI TAMOMLAGAN  
BITIRUVCHILARNI OLIY TA‘LIM MUASSASALARINING  
BAKALAVRIAT TA‘LIM YO‘NALISHLARIGA SUHBAT ASOSIDA  
O‘QISHGA QABUL QILISH DASTURI VA BAHOLASH MEZONLARI**

61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi

**O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2024-yil “29” 02 dagi 7-sonli majlis bayoni.**

**Tuzuvchilar:**

- Boltayev A. Voleybol, basketbol nazariyasi va uslubiyati kafedrası mudiri.
- Soliyev I. Yengil atletika, biatlon nazariyasi va uslubiyati kafedrası mudiri.
- Adilov S. Xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrası professori v.b.
- Serebryakov Y. Boks, kikkoks, muaytay nazariyasi va uslubiyati kafedrası mudiri.
- Pulatov S. Futbol nazariyasi va uslubiyati kafedrası mudiri.

**Taqrizchilar:**

- Abidov Sh. Futbol nazariyasi va uslubiyati kafedrası pofessori, pedagogika fanlari nomzodi.
- Ruzamuxamedov K. O‘zbekiston yengil atletika federatsiyasi bosh kotibi, p.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

## MUNDARIJA

Kirish.....	4
Dasturning maqsadi va vazifalari.....	5
Suhbat jarayonini o‘tkazish tartibi.....	5
Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish uchun tuzilgan “Suhbat” savollari .....	7
1.Sport faoliyati: voleybol.....	9
2.Sport faoliyati: boks.....	10
3.Sport faoliyati: yengil atletika.....	11
4.Sport faoliyati: futbol.....	15
5.Sport faoliyati: erkin kurash.....	18
Universitetning bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilishda baholash mezonini.....	19

**2024–2025-o‘quv yili qabuli uchun texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan  
bitiruvchilarni oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga  
suhbat asosida o‘qishga qabul qilish talablari, baholash mezonlari  
hamda o‘tkazish tartibi**

**KIRISH**

Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakillantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarga o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustaxkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol topish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi xududlarida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etish, mamlakatimizda bu borada yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanish natijalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda mazkur soha rivojiga qaratilgan qator me‘yoriy – huquqiy hujjatlar qabul qilingan va jadallikda hayotga tadbiiq etib kelinmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi, ”Ta’lim” to‘g‘risidagi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-sonli “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-sonli “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarning ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 10-avgustdagi PQ-3196-sonli “Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O‘zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlarida keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi, 2017-yil-10 avgustdagi PQ-3197-sonli “O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya insituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-martdagi PF-5368-sonli “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-sonli “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shma chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-fevraldagi PQ-136-sonli ya’ni “Sportni rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil yetish to‘g‘risida”gi qarori hamda 2022-yil 11-yanvardagi 17-sonli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarorlari shular jumlasidandir.

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti va uning Nukus va Fargona filiallaridagi Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalish bo‘yicha suhbat asosida o‘qishga qabul qilish dasturi umumiy o‘rta va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi (sport maktablari (SM), Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari (OPSTTM)) jismoniy tarbiya va sport dasturlari asosida tuzilgan, texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni bilim va kasbiy ko‘nikmalarni baholashga mo‘ljallangan.

Dasturda texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar bilan o‘tkaziladigan suhbat tartibi, bitiruvchi (texnikum bitiruvchi)larning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan talablar hamda baholash mezonlari o‘z aksini topgan.

### **Dasturning maqsadi va vazifalari**

Dasturning asosiy maqsadi – texnikum bitiruvchi (bitiruvchi) larning jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid egallangan bilim, ko‘nikma va malakalari (jismoniy va sport turlari bo‘yicha umumiy ko‘nikmasini) holati darajasini belgilangan mezonlar asosida aniqlash hamda baholashdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2022-yil 11-yanvardagi 17-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq 2024/2025-o‘quv yilida O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetiga Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha qabul e‘lon qilingan.

Yuqoridagi ta’lim yo‘nalishidan ya’ni sport faoliyati (faoliyati yo‘nalishlari bo‘yicha) bo‘yicha suhbat asosida imtihonlar o‘tkaziladi (sport turlari bo‘yicha savollar va baholash mezonlari ilova qilinadi).

Texnikum bitiruvchilar tanlangan sport turidan suhbat asosida imtihonlarni topshiradilar.

Suhbat asosida imtihonlarni o‘tkazishda har bir bitiruvchidan o‘z bilim va qobiliyatini yuqori darajada namoyon qilishiga imkoniyat yaratiladi.

Sport turlari bo‘yicha suhbat asosida imtihon ballarining maksimal yig‘indisi (summasi) suhbat natijalariga ko‘ra – 100 ballni tashkil etadi.

Tanlangan sport turi bo‘yicha savol sport turlarining xususiyatlariga oid bo‘ladi.

### **Suhbat jarayonini o‘tkazish tartibi**

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha suhbat jarayoni to‘liq videokuzatuv ostida o‘tkaziladi.

Suhbat jarayonida texnikum bitiruvchilarning har biriga quydagi mavzular bo‘yicha bittadan jami to‘rtta savol beriladi:

-mamlakatda o‘z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohatlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish;

-baklavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish);

-shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari);

-tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi.

### **Suhbat jarayoni quyidagi tartibda o'tkaziladi:**

a) texnikum bitiruvchisi ro'yxati va pasporti tekshirilgandan so'ng u suhbat (imtihon) topshirish uchun taklif qilinadi;

b) har bir texnikum bitiruvchisiga suhbat komissiyasi raisi va a'zolari suhbat qabul qiluvchilar suhbat (imtihonlar)ni topshirish tartibi va qoidalarini tushuntiradilar;

g) har bir texnikum bitiruvchisiga suhbat (imtihon) topshirishga tayyorlanish uchun vaqt beriladi;

d) barcha savollarga javob qabul qilinganidan so'ng bitiruvchiga suhbat (imtihon) natijasidan to'plangan umumiy ballari e'lon qilinadi;

j) suhbat (imtihon)ni qayta topshirishga ruxsat etilmaydi;

z) suhbat (imtihon)ga belgilangan muddatlarda kelmagan bitiruvchlarga shu o'quv yili uchun qayta suhbat o'tkazilmaydi.

i) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2022-yil 11-yanvardagi 17-sonli "Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorning 14-banddagi "Bitiruvchi uzirli sabablarga ko'ra (kasalligi, xizmat safarida bo'lganligi yoki oila a'zolarining vafoti etganligini tasdiqlovchi xujjatni taqdim etganda) suhbatda ishtirok eta olmaydigan bo'lsa yoki ishtirok etmasa, suhbat o'tkazilgan sanadan uch kundan kechikmay oliy ta'lim muassasasida tuzilgan qabul komissiyasiga murojaat etishi lozim".

**Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish uchun tuzilgan "Suhbat" savollari**

1. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'RQ-394-son Qonunining asosiy tushunchalari va ularning mazmuni.
2. «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi «Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5924-sonli Farmonidagi asosiy ustuvor vazifalar mazmuni.
3. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari qanday?
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlarini yoritib bering?
5. Sportchining huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?
6. Sportda dopingning oldini olish va unga qarshi kurashish qanday amalga oshiriladi?
7. "Besh tashabbus olimpidasi"ning mazmun-mohiyati qanday?
8. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYA SI da ko'rsatilgan Jismoniy tarbiya va sport tizimining asosiy maqsadlari va rivojlanish yo'nalishlari qanday?
9. O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi haqida ma'lumot bering?
10. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunining mazmun-mohiyati qanday?
11. Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5-ta muhim tashabbusdan birinchisiga izoh bering?
12. Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5-ta muhim tashabbusdan ikkinchisiga izoh bering?
13. Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5-ta muhim tashabbusdan uchinchisiga izoh bering?
14. Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5-ta muhim tashabbusdan to'rtinchisiga izoh bering?
15. Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5-ta muhim tashabbusdan beshinchisiga izoh bering?
16. 5 tashabbus doirasida amalga oshirgan ishlaringiz yoki ishtirokingiz hamda ushbu tashabbuslarga munosabatingiz?
17. Kasbiy maxorat bu - ...?
18. Kasbiy komponentlik nima?
19. O'z ustida ishlash nima?
20. Pedagogik nizo nima va u qanday yo'llar bilan hal qilinadi?
21. Pedagogning o'z ustida ishlash modelida qanday holatlar aks etadi?
22. O'z o'zini baholash tushunchasi qanday manoni anglatadi?
23. Kreativlik deganda nimani tushunasiz?
24. Kreativ kompetentlikni izohlang...!

25. Motivlarga - xos...?
26. Motivlar bu – ...?
27. Yuqori sport natijalariga erishishda qaysi motiv yordam bermaydi?
28. Sport o'yinlarida qaysi motiv ustunlik qiladi?
29. Musobaqa natijalariga qaysi motiv ijobiy ta'sir etadi?
30. Musobaqa natijalariga qaysi motiv salbiy ta'sir etadi?
31. Motivasiyalardan qaysi biri sportchini yuqori natijalarga erishish uchun da'vat etadi?
32. Shaxsning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar?
33. Qobiliyatning rivojlanishida yuzaga keladigan yashirin imkoniyat bu -
34. Uy vazifalarini tekshirish qanday imkoniyatga ega?
35. Yosh xususiyatlari deb nimaga aytiladi?
36. Individual xususiyatlar deb nimaga aytiladi?
37. Rivojlanish deb nimaga aytiladi?
38. Shaxsni har tomonlama tarbiyalashning tarkibiy qismlari bular.
39. Bola shaxsining rivojlanishida tarbiyaning ta'siri nimada namoyon bo'ladi?
40. Bola shaxsining rivojlanishida har tomonlama kuchli ta'sir etuvchi omil nima?
41. Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzda namoyon bo'ladi. Kasbiy etuklik inson ontogenezing muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalarining qaror topishi (.....yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (.....yosh)gacha bo'lgan jarayonda kechadi?
42. Sport faoliyatida ijodkorlikning qanday sifatlari bor?
43. Ta'lim jarayonini mazmunini boyituvchi manba?
44. O'zlashtirish jarayonining asosiy zvenolari?
45. O'qitishning og'zaki usuli qo'yidagilarga bo'linadi?
46. Kasbiy-pedagogik bilimdonlik asosan to'rtta komponenti bilan xarakterlanadi?
47. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining mahorati komponenti?
48. Tarbiyaning an'anaviy usullari?
49. O'qituvchi pedagogik qobiliyatini namoyon etuvchi xususiyatlarini belgilang?
50. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
51. Tarbiya jarayoni qanday tamoyillar asosida tashkil etiladi?
52. Tarbiya metodlari nima?
53. Tarbiya metodlari qanday turlarga ajratiladi?
54. Qanday metodlar ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar sanaladi?
55. Qanday metodlar ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar sirasiga kiradi?
56. Yosh avlod uchun qanday pedagogik hodisalar namuna bo'la oladi?
57. Mashq nima?
58. Mashqlantirish (mashq qildirish) qanday metod?
59. Faoliyatda mashq qilish nimaga qaratilgan?
60. Kun tartibi mashqlari nima uchun xizmat qiladi?
61. Maxsus mashqlardan qanday maqsadlarda foydalaniladi?



62. Pedagogik talab nima?
63. Musobaqa metodi nima?
64. Tarbiya jarayonida rag'batlantirishning qanday turlaridan foydalaniladi?
65. Tarbiya jarayonida rag'batlantirish metodlarini samarali qo'llash uchun nimalarga e'tibor qaratilishi lozim?
66. Jismoniy tarbiyani tashkil etishda qanday maqsad ko'zlanadi?
67. Jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida qanday vazifalar hal qilinadi?
68. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida yosh avlodni jismonan sog'lom bo'lishini ta'minlovchi qanday tizim ishlab chiqildi?
69. Qanday sifatlar shaxsning jismoniy kamolotga egaligini ifodalaydi?
70. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish qanday faoliyat sanaladi?

### **Voleybol ta'lim yo'nalishiga suhbat asosida o'qishga qabul qilish uchun tuzilgan "Suhbat" savollari**

1. Voleybol qachon qayerda kim tomonidan ixtiro qilingan?
2. O'zbekistonning qaysi shaxrida voleybol ilk bor vujudga kelgan?
3. Bugungi O'zbekiston voleyboli, muammolari va yechimlari?
4. Birinchi rasmiy o'yin qoidalari kim va qachon tasdiqlangan?
5. Hujum texnikasiga o'rgatish metodlari?
6. Himoya texnikasiga doir o'yin usullari, ularga o'rgatish metodlari?
7. Rasmiy qoidalarga binoan maydon o'lchamlari haqida ma'lumot bering?
8. O'rgatish bosqichlari, metodlari, haqida ma'lumot bering?
9. O'rgatish prinsiplari haqida ma'lumot bering?
10. Kuch sifati va kuch turlari, kuch, tezkorlik va egiluvchanlikning o'zaro bog'liqligi?
11. Chaqqonlik – kordinatsion qobiliyatlar mazmuni va ularni rivojlantiruvchi mashqlar?
12. Himoya taktikasi necha bo'limga bo'linadi?
13. Maydon, to'r, ustun, antenna o'lchamlari ?
14. To'p kiritishda va uni qabul qilishda uchraydigan xatolar?
15. Texnika so'zi nimani anglatadi va unga tarif bering?
16. Xakamlar va ularning vazifalari?
17. Zamonaviy voleybolda texnik tanaffuslar nima maqsadda beriladi?
18. Voleybol o'yini texnikasi nechtaga bo'linadi. Ularni izoxlang?
19. 15-16 yoshdagi qizlar o'rtasidagi musobaqalar qatnashchilari uchun maydondan to'pning yuqori chekkasigacha bo'lgan balandlik qanday?
20. Voleybol ko'nikmalariga dastlabki o'rgatishning 2-bosqichi qanday nomlanadi?
21. Taktik tayyorgarlikning asosiy maqsadi qanday ?
22. O'yinchilarning o'zaro to'g'ri yoki noto'g'ri joylashishi hakamlar tomonidan qanday aniqlanadi?
23. Bir jamoaga bitta partiya davomida maksimal necha marta o'yinchi almashtirishiga ruxsat beriladi?

24. Agar maydonchani chegaralaydigan antennaga to'p tegsa xato xisoblanadimi?
25. Bir vaqtni o'zida maydonda 2 ta "libero" o'ynashi mumkinmi?
26. Ayni kunda rasmiy qoidalarga binoan har bir jamoa tarkibida nechta o'yinchi bo'lishi mumkin?
27. Respublika va xalqaro musoboqalarda chiziqlar bo'yicha hakamlar soni nechta bo'ladi?
28. Voleybol bo'yicha ayollar o'rtasida, birinchi bor Jahon chempionati qachon va qaeyrda o'tkazilgan?
29. Voleybol birinchi bor Olimpiya o'yinlari dasturiga qachon va qaeyrda kiritilgan?
30. Kimni iltimosi bilan hakamlar tanaffus e'lon qiladi?

### **Boks ta'lim yo'nalishiga suhbat asosida o'qishga qabul qilish uchun tuzilgan "Suhbat" savollari**

1. Turli tarixiy davrlarda boksni paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini aytib bering?
2. Mustaqillikka erishgandan so'ng birinchi Osiyo o'yinlari chempion va sovrindorlaridan kimlarni bilasiz?
3. Mustaqillikka erishgandan so'ng jahon chempionlaridan kimlarni bilasiz?
4. Yosh bokschilarni hujum harakatlariga o'rgatishni izohlab bering?
5. Yosh bokschilarni himoya harakatlariga o'rgatishni izohlab bering?
6. Taktikaga ta'rif bering?
7. Chidamlilikni tarbiyalash da qanday vosita va usullar qo'llaniladi?
8. Jismoniy tayyorgarlik nima va uning qanday turlarini bilasiz?
9. Tezkorlikni tarbiyalash da qanday vosita va usullar qo'llaniladi?
10. Kuchni tarbiyalashda qanday vosita va usullar qo'llaniladi?
11. Muvozanat va uni tarbiyalash usuliyati to'g'risida qanday tushunchaga egasiz?
12. Egiluvchanlikni tarbiyalashda qanday vosita va usullar qo'llaniladi?
13. Qo'llarda zarba berish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan portlovchi va tezlik – kuch sifatlarini rivojlantiradigan mashqlarga izoh bering?
14. Chaqqonlikni tarbiyalash da qanday vosita va usullar qo'llaniladi?
15. Bokschini o'rgatish uslublarini tasniflab bering?
16. Boks texnikasiga o'rgatishning asosiy usullarini tasniflab bering?
17. Texnikani takomillashtirish mashg'ulotlarini tasniflab bering?
18. Maxsus tayyorgarlik mashqlarini tasniflab bering?
19. Jang taktikasini takomillashtirish mashg'ulotlariga izoh bering?
20. Umumiy chidamlilikni ko'proq rivojlantirish uchun qo'llaniladigan mashqlarni izohlab bering?
21. Yuqori malakali bokschilarning yillik tayyorgarlik ssiklini tashkil etish modelini tavsiflab bering?
22. Murabbiylik usullarini tavsiflab bering?
23. Boksda rejalashtirishning maqsad va vazifalari.

24. Boksda rejalashtirish turlari.
25. Jang shiddati va zichligini baholash nimani anglatadi?
26. Hujum qilish va himoyaga qaratilgan harakatlar samaradorligi qanday baholanadi?
27. Boksda qanday vazn toifalari bor?
28. Milliy va xalqaro miqyosdagi IBA musobaqalarida ishtirok etish uchun nima talab qilinadi?
29. Bokschilarni yoshga oid tasniflab bering.
30. Bokschilarni ochkolarni hisoblash tizimi necha balli tizimga asoslaniladi?
31. Bokschilarga musobaqalarda qatnashishi uchun zarur bo'lgan hujjatlar.
32. Musobaqalarda g'oliblarni aniqlash yo'llarini bayon qiling.
33. Hakamlar tomonidan ochko yozish tartiblarini tushuntiring.
34. IBA tomonidan ruxsat etilgan ring o'lchamlarini bayon eting.
35. Milliy va xalqaro miqyosdagi IBA musobaqalarida ishtirok etish uchun nima talab qilinadi?

**Yengil atletika ta'lim yo'nalishiga suhbat asosida o'qishga  
qabul qilish uchun tuzilgan "Suhbat" savollari**

1. Yengil atletikaning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi haqida ma'lumot bering?
2. Yengil atletika sport turining rivojlantirishdagi muammolarni ko'rsatib bering?
3. Olimpiya o'yinlariga yengil atletika turlarini kiritilishi tarixi haqida ma'lumot bering?
4. Zamonaviy yengil atletikaning rivojlanish bosqichlarini ko'rsatib bering?
5. O'zbekistonda zamonaviy yengil atletikaning rivojlanish yo'llari haqida ma'lumot bering?
6. Yengil atletika turlarining tasnifini yoritib bering?
7. G'ovlar osha yugurish turlari texnikasi asoslari haqida ayting?
8. G'ovlar osha yugurish turlari tarixi haqida ma'lumot bering?
9. G'ovlar osha yugurish bo'yicha musobaqa qoidalari haqida ma'lumot bering?
10. G'ovlar osha yugurishni o'rgatishning uslubiyati va asosiy vositalarini aytib bering?
11. Estafetali yugurish texnikasini tahlil qiling?
12. Estafetali yugurishning rivojlanish tarixi haqida ma'lumot bering?
13. 4x100 va 4x400 metrli estafeta yugurishda musobaqalar tashkil etish va o'tkazish haqida gapiring?
14. Estafetali yugurishni o'rgatishning uslubiyati va asosiy vositalarini aytib bering?
15. Qisqa masofaga yugurish turlari texnikasi asoslari haqida turshuntirib bering?
16. Qisqa masofaga yugurish turlari bo'yicha musobaqalar qoidalari va o'tkazish bo'yicha ma'lumot bering?

17. Qisqa masofaga yugurish turlarining rivojlanish tarixi haqida ma'lumot bering?
18. Qisqa masofaga yugurishni o'rgatishning uslubiyati va asosiy vositalarini aytib bering?
19. O'rta masofaga yugurishni o'rgatish uslubiyati haqida tushuntirib bering?
20. O'rta masofaga yugurish turlari texnikasi asoslari haqida ma'lumot bering?
21. O'rta masofaga yugurish musobaqasini o'tkazish qoidalari haqida ma'lumot bering.
22. O'rta masofaga yugurish turlari tarixi haqida ma'lumot bering.
23. O'rta masofaga yugurish turlari texnikasini o'rgatishning uslubiyati va asosiy vositalari haqida nimalarni bilasiz.
24. Kross yugurish texnikasi asoslari deganda nimani tushunasiz.
25. Kross yugurish musobaqalarini tashkil etish va musobaqa qoidalari haqida ma'lumot bering.
26. Kross yugurish mashg'ulotlarining asosiy vositalari va usullari haqida nimalarni bilasiz va u haqda malumot bering.
27. Uzoq masofaga yugurish tarixi haqida ma'lumot bering.
28. Uzoq masofaga yugurishni o'rgatishning uslubiyati va asosiy vositalari haqida ma'lumot bering.
29. Qisqa masofaga yugurish tarixi haqida ma'lumot bering.
30. Qisqa masofaga yugurish turlarini o'rgatishning uslubiyati va asosiy vositalari deganda nimani tushunasiz va u haqida ma'lumot bering.
31. Qisqa masofaga yugurish texnikasining tahlil qilib bering.
32. To'siqlar osha yugurish musobaqalarini tashkil etish va musobaqa qoidalari haqida ma'lumot bering.
33. To'siqlar osha yugurishning rivojlanish tarixi
34. To'siqlar osha yugurishni o'rgatishning uslubiyati va asosiy vositalari haqida tushuncha bering?
35. To'siqlar osha yugurishni texnik tahlil qiling?
36. Sportcha yurish musobaqa qoidalari va musobaqalarini tashkil etish haqida ma'lumot bering?
37. Sportcha yurishining rivojlanish tarixi haqida ma'lumot bering?
38. Sportcha yurish texnikasini o'rgatishning uslubiyati va asosiy vositalari haqida malumot bering?
39. Yugurib kelib uzunlikka sakrash musobaqalarini tashkil etish va musobaqa qoidalari haqida malumot bering?
40. Yugurib kelib uzunlikka sakrashning rivojlanish tarixi haqida ma'lumot bering?
41. Yugurib kelib uzunlikka sakrash texnikasini o'rgatishning uslubiyati va asosiy vositalari
42. Yugurib kelib uzunlikka sakrash texnikasini tahlil qilish.
43. Yugurib kelib uch hatlab sakrashning rivojlanish tarixi haqida ma'lumot bering?
44. Yugurib kelib uch hatlab sakrashning o'rgatishning uslubiyati va asosiy vositalari haqida ma'lumot bering?

45. Balandlikka sakrash musobaqalarini tashkil etish va musobaqa qoidalari haqida tushuncha bering?
46. Yugurib kelib balandlikka sakrashning rivojlanish tarixi
47. Yugurib kelib balandlikka sakrashning o'rgatishning uslubiyati va asosiy vositalari
48. Yugurib kelib balandlikka sakrashning texnikasini tahlil qilish
49. Langar cho'p bilan sakrashning musobaqalarini tashkil etish va musobaqa qoidalari
50. Langar cho'p bilan sakrashning rivojlanish tarixi haqida ma'lumot bering?
51. Langar cho'pga tayanib sakrash texnikasini o'rgatish uslubiyati va asosiy vositalarini misollar keltiring?
52. Langar cho'pga tayanib sakrash texnikasini tahlil qilishni tushuntirib bering?
53. Nayza uloqtirish musobaqalarini tashkil etish va musobaqa qoidalari haqida tushuntirib bering?
54. Nayza uloqtirish tarixi haqida ma'lumot bering?
55. Nayza uloqtirish texnikasini o'rgatish uslubiyati va asosiy vositalarini to'g'ri qo'llashni tushuntirib bering?
56. Nayza uloqtirish texnikasini tahlil qilishni tushuntirib bering?
57. Bosqon uloqtirish musobaqalarini tashkil etish va musobaqa qoidalari haqida tushuncha bering?
58. Bosqon uloqtirish tarixi haqida so'zlab bering?
59. Bosqon uloqtirish texnikasini o'rgatish uslubiyati va asosiy vositalarini qo'llanilishi haqida ayting?
60. Bosqon uloqtirish texnikasini tahlil qilish haqida ma'lumot bering.
61. Musobaqa qoidalari va disk uloqtirish musobaqalarini tashkil etishni tushuntirib bering?
62. Disk uloqtirish texnikasini tahlil qilish haqida fikr bildiring?
63. Yadro itqitish musobaqalar tarixi yadroni rivojlanish tarixi va musobaqa qoidalari haqida ma'lumot beriladi.
64. Yadro itqitishni o'rgatishning uslubiyati va asosiy vositalari
65. O'ngkurash musobaqalarini tashkil etish va musobaqa qoidalari haqida tushuncha beriladi?
66. O'ngkurash turlarini o'rgatishning uslubiyati va asosiy vositalariga misollar keltirib ochib bering?
67. Yettikurash musobaqalarini tashkil etish va musobaqa qoidalari haqida ma'lumot bering?
68. Yettikurash turini o'rgatishning uslubiyati va asosiy vositalariga misollar keltirib bering?
69. Yengil atletikada ilmiy tadqiqotlarning o'rnini haqida tushuntirib bering?
70. Yengil atletika ilmiy tadqiqot terminologiyasiga ta'rif bering?
71. Yengil atletikada jismoniy tayyorgarligini aniqlash usullarini aytib bering?
72. Sportchilarning funksional holatini aniqlash usullarini aniqlab bering?
73. Sportchilarning jismoniy rivojlanishini aniqlashni aytib bering?
74. Yengil atletika bo'yicha o'tkazilgan mashg'ulotlar samaradorligini tahlil

qilish aytib bering?

75. Yengil atletika mashg'ulotlarini xronometraj qilish aniqlab bering?
76. Bolalar va o'smirlar sportining asoslari nimalardan iborat?
77. Yengil atletika bo'yicha ko'p yillik mashg'ulotlar jarayonining asoslari ko'rsating?
78. Turli yosh guruhlarida mashg'ulot usullari xaqida aytib bering?
79. Yillik mashg'ulotlar rejasining mazmuni aytib bering?
80. Oylik mashg'ulotlar rejasining mazmuni aytib bering?
81. Yengil atletika mashg'ulotlari uchun haftalik siklning tuzilish misolini keltiring?
82. Yengil atletika bo'yicha mashg'ulotning tuzilishi va qismlari haqida tushuncha bering?
83. Yengil atletika bo'yicha o'tkazilgan mashg'ulotlar tahlilini mazmuni?
84. Yengil atletika bo'yicha mashg'ulotning davomiyligi haqida aytib bering?
85. Umumiy jismoniy tayyorgarlikning mazmuni deganda nimani tushunasiz?
86. Maxsus jismoniy tayyorgarlikning mazmuni haqida nimalar bilasiz?
87. Texnik tayyorgarlik mazmunini tushuntirib bering?
88. Yengil atletikchilarning tayyorgarligining nazariy mazmunini tushuntirib bering?
89. Sportchilarning musobaqa faoliyatini tahlil qilish haqida ma'lumot bering?
90. Boshlang'ich tayyorgarlik guruhida o'quv jarayonini rejalashtirish haqida nimalar bilasiz?
91. Boshlang'ich tayyorgarlik guruhida ikkinchi o'quv yili jarayonini Rejalashtirishni so'zlab bering?
92. Sport takomillashuv guruhida o'quv jarayonini rejalashtirishni tushuntirib bering?
93. Sport takomillashuvi guruhida ikkinchi yilida o'quv jarayonini rejalashtirish haqida ma'lumot bering?
94. Yengil atletika mashg'ulotlarining moddiy-texnik ta'minoti nima?
95. Mashg'ulotlar jarayonini boshqarish va nazorat qilishni tushuntirib bering?
96. Yengil atletika mashg'ulotlarida individual yondashuv haqida tushuncha bering?
97. Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy innovatsion texnologiyalar haqida ma'lumotlar bering?
98. Yengil atletikada saralash va bashorat qilishning nima uchun kerakligini tushuntiring?
99. Ayollar bilan mashg'ulotlarini tashkil etish asoslari haqida tushuncha bering?
100. Yurish va yugurish orqali sog'lomlashtirishning usullari ko'rsating?

## **Futbol ta'lim yo'nalishiga suhbat asosida o'qishga qabul qilish uchun tuzilgan "Suhbat" savollari**

1. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Futbol bo'yicha ilk Chempionat qachon tashkil etilgan va unda nechta jamoa ishtirok etgan ?
2. Musobaqa nizoma nima asosida kelib chiqadi va u qanday hujjat hisoblanadi?
3. O'yindagi hujuchilarning taktik harakatlariga izoh bering?
4. Futbol bo'yicha Evropa chempionlari kubogi musobaqalari qachon o'tkaziladi?
5. Musobaqa nizomi qanday hujjat hisoblanadi, u nechta moddadan iborat va ularga tavsif bering?
6. O'yindagi himoyachilarning taktik harakatlariga izoh bering?
7. Futbol bo'yicha Jaxon chempionlar Kubogi qaysi tizim asosida o'tkaziladi ?
8. "Dubl- ve" sistemasini kim ishlab chiqqan?
9. Xujumda individual taktik xarakterlar deganda nimani tushunasiz?
10. Birinchi qonun qoida kitobi qaeyrda, qaysi yili va kim tomonidan ishlab chiqalgan (moddalari)?
11. Futbol bo'yicha Osiyo chempionalar Kubogi qaysi tizim asosida o'tkaziladi?
12. Tezkor xujum taktikasi nima?
13. Birinchi qonun qoida kitobi qaeyrda, qaysi yili va kim tomonidan ishlab chiqalgan (moddalari)?
14. Aralash tizimli musobaqalarni tashkil qilish deganda nimani tushunasiz?
15. Himoya taktikasi necha bo'limga bo'linadi?
16. Ilk bora "O'yindan tashqari holat" qaysi yili qoidagi kiritildi va uning mazmuni?
17. Olimpiya tizimi asosida, ya'ni mag'lubiyatga uchragan jamoa o'yindan chiqib ketish usuli bo'yicha musobaqalar o'tkazish bo'yich ma'lumot bering?
18. Darvozabonning o'yindagi taktikaga ta'siri?
19. UEFA nechanchi yili tashkil topgan va uning ilk a'zolari kimlar bo'lgan?
20. Futbol bo'yicha O'zbekiston milliy chempionati qaysi tizim asosida tashkil etilgan va o'tkaziladi?
21. Taktika necha bo'limga bo'linadi va ularga tavsif?
22. Maydon o'yinchisi texnikasi nechtaga bo'linadi?
23. Hujumda individual taktik xarakterlar deganda nimani tushunasiz?
24. Musobaqani asosiy va yordamchi musobaqa turlariga nimalar kiradi, ular o'rtasida farqi qanday?
25. Texnika nechiga bo'linada va haraktlanish texnikasiga nimalar kiradi
26. Davrali tizim bo'yicha o'yinlar taqvimini tuzishni nechta usuli mavjud va ularga tavsif?

27. Futbol o'yini texnikasi nechtaga bo'linadi. Ularni izoxlang?
28. KAF nechanchi yili tashkil topgan va uning ilk a'zolari kimlar bo'lgan?
29. Musobaqani asosiy va yordamchi musobaqa turlariga nimalar kiradi, ular o'rtasida farqi qanday?
30. Futbolni o'yini texnik usulari haqida ma'lumotlar?
31. Birinchi qonun qoida kitobi qaysi yili, nechta moddadan iborat va hozirga kungacha kiritilgan o'zgarishlar haqida ma'lumot bering?
32. Musobaqa o'tkazish tizimlarini bo'linishi va ularning tavsif?
33. Texnik suzni nimani anglatadi va unga tarif bering?
34. Ko'rish qobiliyatini ahamiyati bo'yicha ma'lumot bering?
35. Musobaqa nizoma nima asosida kelib chiqadi va u qanday hujjat hisoblanadi?
36. O'yindagi hujuchilarning taktik harakatlariga izoh bering? Ilk halqaro uchrashuv qayeda, qaysi yili o'tkazilda va qimlar ishtirok etdi?
37. Musobaqa qonun-qoida kitobining 4 moddasida nimalardan iborat va tarif bering?
38. Texnik-taktik harakat deganda nimani tushunasiz va uning ta'rifi?
39. Dastlab darvoza ustun oraliq masofasi qancha bo'lgan va hozirgi kundaga o'lchamlari haqida ma'lumot bering?
40. Musobaqalarni turlari nechiga bo'linidi va ularga ta'rif bering?
41. Himoyachilarni guruh taktikasi deganda nimani tushunasiz?
42. Birinchi rasmiy o'yin qoidalari kim va qachon tasdiqlangan?
43. Musobaqa qonun-qoida kitobining 13 moddasida nimalardan iborat va tarif bering?
44. Tadrijiy xujum taktikasi nima?
45. Dastlabki rasmiy qoidalarga binoan maydon o'lchamlari va hozirgi kundagi o'lchamlarni o'zgarganligi haqida ma'lumot bering?
46. Musobaqa qonun-qoida kitobining 7 moddasida nimalardan iborat va tarif bering?
47. Futbolni o'yini texnik usulari haqida ma'lumotlar?
48. "O'yindan tashqari xolat" vaziyatni dastlabki ko'rinishi va hozirgi kundagi farqi?
49. Musobaqa qonun-qoida kitobining 5 moddasida nimalardan iborat va tarif bering?
50. Himoya taktikasi necha bo'limga bo'linadi?
51. Hakamsiz o'yin qay holatda boshqarilgan va hozirgi kungacha maydonga hakamlarni tushishini o'zgarib kelishi?
52. Musobaqa qonun-qoida kitobining 9 moddasida nimalardan iborat va tarif bering?
53. Texnik suzni nimani anglatadi va unga tarif bering?
54. Darvozabonga jarima maydoni ichkarisida qo'l bilan o'ynashga qachon ruxsat berildi (bir qo'lda va ikki qo'lda)?
55. Musobaqa qonun-qoida kitobining 3 moddasida nimalardan iborat va tarif bering?



56. Futbol o'yini texnikasi nechtaga bo'linadi. Ularni izoxlang?
57. Xalqaro Futbol Assotsiatsiyasi (FIFA) qachon tuzildi va birinchi a'zolari haqida ma'lumot bering?
58. Musobaqa qonun-qoida kitobining 11 moddasida nimalardan iborat va tarif bering?
59. Maydon o'yinchisi texnikasi nechtaga bo'linadi?
60. Xushtak o'yinga qachon kiritildi. Unga qadar hakamlar o'yinni qanday boshqarar edilar?
61. Musobaqa qonun-qoida kitobining 12 moddasida nimalardan iborat va tarif bering?
62. Tezkor xujum taktikasi nima?
63. FIFA ning tashkiliy 6 ta negizi: UEFA, KONKAKAF, KONMEVOL, KAF, AFK, KFO- ma'nosi va tashkil topishi?
64. Musobaqa qonun-qoida kitobining 17 moddasida nimalardan iborat va tarif bering?
65. Tadrijiy xujum taktikasi nima?
66. Futbol bo'yicha Jahon chempionati, Evropa chempionati, va Olimpiya o'yinlarida birinchi bor qachon va qaerda o'ynalgan?
67. Musobaqa qonun-qoida kitobining 15 moddasida nimalardan iborat va tarif bering?
68. "Dubl- ve" sistemasini kim ishlab chiqqan?
69. O'zbekiston Futbol Federatsiyasini tashkil topganligi, FIFA va OFK tashkilotiga qachon a'zo bo'lgani haqida ma'lumot bering?
70. Musobaqa qonun-qoida kitobining 16 moddasida nimalardan iborat va tarif bering?
71. O'yinchi va darvozabon texnikasi o'rtasidagi farq va ularga tavsif bering?
72. Mamlakatimizda birinchi futbol jamoasi qachon va qaerda rasman tashkil topdi?
73. Musobaqa qonun-qoida kitobining 5 moddasi nimalardan iborat va tarif bering?
74. "Total futbol" deganda nimani tushunasiz?
75. O'zbekistonlik terma jamoasining Yaponiyada bo'lib o'tgan XII Osiyo o'yinlarida qarshilik qilgan jamolar va olgan o'rinlari?
76. Musobaqa qonun-qoida kitobining 10 moddasida nimalardan iborat va tarif bering?
77. Taktika haqida tushuncha va turlari tavsif?
78. O'zbekistonda "Paxtakor" sport uyushmasi qachon tashkil topshi, hozirgi kungacha egallagan sovrinlari haqida ma'lumot bering?
79. Futbol uchrashuvini boshqaradigan hakamlar brigadasi haqida ma'lumotlar keltiring?
80. O'yinchi va darvozabon texnikasi o'rtasidagi farq va ularga tavsif bering?

## **Erkin kurash ta'lim yo'nalishiga suhbat asosida o'qishga qabul qilish uchun tuzilgan "Suhbat" savollari**

1. Erkin kurashda parter holatida bajariladigan texnik usullar haqida ma'lumot bering?
2. Tik holatda holatida bajariladigan erkin kurash texnik usullari haqida ma'lumot bering?
3. Terminologiya tushunchasini ko'rsating?
4. Kurashchining chidamliligi nima?
5. To'ntarish texnik usullari qanday bajariladi?
6. To'ntarish texnik usullari qanday bajariladi?
7. Tashlash texnik usullari qanday holatlarda bajariladi?
8. Yiqitish texnik usullari qanday harakatda bajariladi?
9. Yiqitish texnik usullari qanday holatlarda bajariladi?
10. Erkin kurashda yiqitishning qanday turlari bor?
11. Himoya va qarshi usul texnik harakatlarining farqi nimada?
12. Musobaqalarni o'tkazish uslubiga ko'ra ular qanday bo'linadi?
13. Musobaqa bosh hakaminig asosiy vazifasi nimadan iborat?
14. Musobaqalarda qatnashish taktikasi haqida ma'lumot bering?
15. Bellashuvda bajarilgan texnik usulni baholashda nimaga e'tibor berish talab etiladi?
16. Pulsometriya nima uchun muhim uslub hisoblanadi?
17. Texnika hajmi deganda nimani tushunasiz?
18. Erkin kurashchining jismoniy tayyorgarligi deganda nimani tushunasiz?
19. "Kuch" sifati deganda nima tushuniladi?
20. Kuch va uning turlari haqida ma'lumot bering?
21. Kurash texnik usullari tushunchasiga ta'rif bering?
22. Himoya tushunchasiga ta'rif bering?
23. Qarshi usul tushunchasiga ta'rif bering?
24. Erkin kurashda qaysi texnik harakatlar uchun musobaqada ikki ball beriladi?
25. Erkin kurashda qaysi texnik harakatlar uchun musobaqada to'rt ball beriladi?
26. Erkin kurashda qaysi texnik harakatlar uchun musobaqada besh ball beriladi?
27. Erkin kurash turlarida qanday holatlarda texnik usullarni bajarish mumkin?
28. Erkin kurash musobaqalarida kurashchilarning bajargan usullariga qanaqa ballar beriladi?
29. Erkin kurash musobaqalarida gilamga birinchi bo'lib chaqirilgan kurashchining kiyimi qanday rangda bo'ladi?
30. Erkin kurash musobaqalarida kurashchilar bellashuvi qanday hollarda muddatidan oldin tugatiladi?
31. Erkin kurash bellashuvlarida kurashchilar orasida necha xil masofa bor?
32. Erkin kurashda tik turgan holatdagi usullar qaysilari kiradi?
33. Jismoniy sifatlarni sanab bering?

34. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda erkin kurashning rivojlanishi haqida ma’lumot bering?
35. Erkin kurashning paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi haqida ma’lumot bering?
36. Taktik tayyorgarlik maqsadi va vazifalari haqida ma’lumot bering?
37. Bellashuvni tuzish taktikasi haqida ma’lumot bering?
38. Chidamlilik va uni rivojlantirish uslubiyatiga ta’rif bering?
39. Sportda doping tushunchasiga ta’rif bering?
40. Guruhlarni to‘ldirish va trenirovka jarayonini tashkil etish haqida ma’lumot bering?

**2024–2025-o‘quv yili qabuli uchun texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni universitetning bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilishda baholash mezonlari**

**Asosiy qoidalar**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2022-yil 11-yanvardagi 17-sonli “Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ning 15-bandiga muvofiq o‘tkaziladi.

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida 61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha) suhbat o‘tkazish belgilangan.

Texnikum bitiruvchilarini baholashda quyidagi mavzular bo‘yicha bittadan jami to‘rtta savol beriladi:

-mamlakatda o‘z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohatlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish;

-baklavriat ta’lim yo‘nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko‘rsatish);

-shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o‘qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas’uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o‘z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari);

-tanlangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko‘nikmalarning mavjudligi.

Ushbu reyting baholash me’zoni 61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha) suhbat o‘tkazish bo‘yicha texnikum bitiruvchilarini o‘z ta’lim yonalishlari va sohalari bo‘yicha fanlaridan o‘zlashtirgan bilimni nazorat qilish hamda baholash uchun mo‘ljallangan. Texnikum bitiruvchilarini suhbat asosida bilimlarini reyting tizimi bo‘yicha baholashda quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

-texnikum bitiruvchilarini ta’lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilish;

-o‘z sohalari bo‘yicha bilimi, ko‘nikma va malakalarini fanlardan qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlash.

### **Suhbat jarayonini baholash tartibi va mezonlari**

Texnikum bitiruvchilarini baholashda 61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) suhbat 100 ballik reyting nazorat tizimi asosida baholanadi.

Bunda texnikum bitiruvchisi suhbat bo'yicha to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball, ya'ni 100 ball quyidagicha taqsimlanadi:

-mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohatlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish – 0-25 ball;

-baklavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish) - 0-25 ball;

-shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari) - 0-25 ball;

-tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi - 0-25 ball.

Texnikum bitiruvchilarini suhbat (imtihon) natijalarini baholashda quyidagi mezonlarga amal qilinadi:

a) 86-100 ball uchun texnikum bitiruvchisining bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- xulosa va qaror qabul qilish;
- ijodiy fikrlay olish;
- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

b) 71-85 ball uchun texnikum bitiruvchisining bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

v) 55-70 ball uchun texnikum bitiruvchisining bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

g) quyidagi hollarda texnikum bitiruvchisining bilim darajasi 0-54 ball bilan baholanishi mumkin:

- aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
- bilmaslik.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi 67 (otmish yetti) ball va undan yuqori

bo'lganda abituriyent suhbatdan o'tgan xisoblanadi.

Ushbu 67 (otmish yetti) balldan past ball olgan abituriyent suhbatdan o'tmagan hisoblanadi.

Suhbat natijalari bo'yicha apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyatsiya kommissiyasi tuziladi. Suhbat natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida oliy ta'lim muassasasida yozma shaklda qabul qilinadi. Apellyatsiya kommissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda videoyozuv asosida ko'rib chiqiladi.